

ISHLAD CHIYOLGAN O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

• O‘zbekiston davlat ta’limi tili va englishtili

FASIDLIGANGAN VA AMALIYA KEPFILLARI

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
REJESTR IDORIYATI 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

REJESTR IDORIYATI 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari

Maktab hujjati bilan “Oliy ta’lim davlati o‘lim yuridigi” “Oliy ta’lim davlati o‘lim standarti” Oliy ta’lim yo‘nalishini va amaliyotini qidirishda, O‘zbekiston Respublikasi MOLK va DILGAZ ministrini o‘sishga yaroqchi studentlar ishlashicha bilan tashrif etiladi.

Toshkent



ISHLAB CHIQILGAN:

- O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligining
2023 yil «07» 08 dagi 344-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovasiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi.....</i>	4
1.1	Qo‘llanish sohasi	4
1.1.1	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi malaka talabining qo‘llanishi.....</i>	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyatlarining ob’yeqtleri.....</i>	4
1.2.3	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo‘yiladigan talablar.....</i>	6
2.1	Umumiy kompetentsiyalar	6
2.2	Kasbiy kompetentsiyalar	6
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallahni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	7
2.3.2	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....</i>	7
2.3.3	<i>60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....</i>	7
	Bibliografik ma’lumotlar	8
	Kelishuv varag‘i	9

1. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishining tavsifi

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi tablim shaklida amalga oshiriladi. Ushbu ta’lim shakli bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabi **60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- mazkur ta’lim yo‘nalish bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun ma’sul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruvi hodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv-bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv reja va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya komissiyalar;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim tashkilotini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi

1.2.1. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohaları:

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) – “Tillar” ta’lim sohasiga oid yo‘nalish bo‘lib, u tarjimonlik byurolari, muzeylar, ommaviy axborot vositalari, nashriyotlar, tahririyatlar, davlat boshqaruvi organlari, sayohat agentliklari, turizm obyektlari, aviakompaniya, firma va mehmonxonalarda tarjimonlik, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, uzluksiz ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish bilan bog‘liq masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining ob’yeqtari:

- og‘zaki va yozma tarjima faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tarjimonlik byurolari, agentliklar, muzeylar va turizm obyektlari nashriyotlardagi tarjima jarayonlari;

- o‘rganilayotgan tilning nazariyi va amaliy asoslari va lug‘at boyligi, mazkur tilda ilmiy va badiiy adabiyotlarni tarjima qilish jarayonlari;

- o‘rganilayotgan tildagi tarjimalar va uning rivojlanish jarayoni;

- tarjima nazariyasi va amaliyotining asoslari, matn tarjimasi, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, badiiy tarjima, terminologiya tarjimasi, yozma tarjima, ommaviy axborot tarjimasi, audiovizual tarjima jarayonlari.

60230200-Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari fan sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tamomlagandan so‘ng, umumiy o‘rtta, o‘rtta maxsus, professional ta’limi muassasalarida, maktabdan tashqari ta’lim

muassasalarida o'rgangan asosiy va ikkinchi chet tillaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy-tadqiqot institutlarida, o'rgangan asosiy va ikkinchi chet tillaridan tarjimon talab etiladigan tashkilotlar, gazeta va jurnallar tahririysi, radio va televiedenie, nashriyotlarda kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- tarjimonlik faoliyati;
- tarjimonlik va muharrirlik faoliyati;
- tashkiliy-boshqaruv faoliyat;
- OAV da tarjimonlik faoliyati;
- ilmiy tadqiqot faoliyati;
- pedagogik faoliyat (qayta taylorlashdan so'ng);

1.2.4. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari:

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faolyatlarining sohalari, ob'yeqtleri va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Tarjimonlik faoliyatida:

- tarjimaning nazariy asoslarini, tarjimaning fonetik, grammatik, leksik, frazeologik, stilistik va pragmatik muammolarini bilish;
- tarjima turlari, leksik muqobililik, tarjimada qo'llaniladigan asosiy metodlarini amalda qo'llay olish;
- tarjimani tanqidiy baholay olish va tahlil qilish;
- yozma, og'zaki va audiovizual tarjimaning asosiy xususiyatlarini o'zlashtirish;
- tarjimada til vositalarini ongli ravishda tanlash, leksik, semantik, frazeologik uslubiy matnlarning o'ziga xosliklarini ona tili va chet tillarida inobatga olish malakasini egallah;
- chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga og'zaki va yozma tarjimani amalga oshirish;
- xalqaro konferensiyalarda sinxron, audiovizual, ketma-ket tarjima qila olish;
- amaliyotda informasion texnologiyalarni xalqaro va kasbiy standartlarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash.

Tarjimonlik va muharrirlik faoliyati:

- turli uslubdagi matnlarni tarjima qilish va ushbu jarayonda adabiy til normalariga amal qilish;
- matnlarni tarjima va tahrir qilish qilish;
- tahrir qilingan materiallarni nashr etishga tayyorlash;
- xorijiy tilda materiallar tayyorlash, turli manbalardagi ma'lumotlarni saralash va tahrir qilish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- tarjimonlik faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- og'zaki tarjima jarayonida qo'llanadigan texnik uskunalardan foydalana olish va ularni nazorat qilish;
- tarjima faoliyati davomida mehnat xavfsizligi talablariga rioya qilish;
- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;
- bajarilayotgan ish rejasini tuzish va bu ishni nazorat qilish, ishni bajarish uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish, ish natijalarini baholash.

OAVda tarjimonlik faoliyatida:

- bosma va elektron ommaviy axborot vositalari uchun xorijiy tillardagi materiallarni tarjima qilish;
- xorijiy tillarda intervyu olib borish, sxandonlik qilish;
- xorijiy tillardagi materiallarni tahrir qilish.

Ilmiy tadqiqot faoliyatida:

- o'tkazilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari mavzusi bo'yicha metodlar, dasturiy yechimlar, yangi tadqiqotlar qilish va ishlab chiqish;

- tarjimashunoslikning dolzarb masalalari bo'yicha eksperimental tadqiqotlarni o'tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;
- o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqish va bibliografiyalarni tuzish;
- internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatasion yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'naltirilgan holda qidirish va topish;
- ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish jamoasi tarkibida (tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda) kasbiy faoliyat masalalarini yechish.

Pedagogik faoliyatda

- muktabgacha, umumiy o'rta va o'rta maxsus hamda professional ta'lim tizimining ixtisosligiga mos ta'lim muassasalarida o'rgangan asosiy va ikkinchi xorijiy tillarni o'qitish;
- zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan'anaviy o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;
- o'qitilayotgan fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun zarur bo'lган o'quv metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;
- o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish uchun o'qitishning didaktik vositalaridan foydalanish;
- chet tillarni intensiv shaklda o'rgatish (qisqa kurslar);
- mustaqil ta'lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o'qitilayotgan fan bo'yicha pedagogik faoliyatni muttazam takomillashtirib borish

2. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar

2.1. Umumi kompetentsiyalar:

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda xayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to'g'risida ilmiy tessavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish va boshqa ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

2.2 . Kasbiy kompetentsiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- sohaga doir nazariy bilimlarni turli uslubdagagi matnlar tarjimasida qo'llay olish;
- turli sohalarga oid matnlarni tahrir qila olish;
- tarjimanini tanqidiy baholay olish va tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- yozma va og'zaki tarjima qila olish;
- tarjimashunoslik sohasida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish;
- asliyat va tarjima tillarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini ajrata olish;
- madaniyatlararo muloqotni shakllantiruvchi bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish;
- xalqaro konferensiyalarda sinxron, audiovizual, ketma-ket tarjima qilish malakasiga ega bo'lish.

2.3. Umumi va kasbiy kompetentsiyalarni egallahni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiylar va kasbiy kompetentsiyalar, bilim va ko'nikmalarini egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketmeketligda kiritiladigan **majburiy va tanlov** fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tish hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida

amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetentsiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko‘nikmalarni ta’minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlari – ta’lim yo‘nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo‘srimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetentsiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o’tkaziladi:

malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetentsiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi; pedagogik amaliyot — pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

2.3.1. Kvalifikatsiya: tarjimon (asosiy va ikkinchi til bo‘yicha)

2.3.2. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar:

O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta’lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5340	178
Tanlov fanlar	1200	40
Malakaviy amaliyot	540	18
Yakuniy davlat attestasiyasi	120	4

2.3.3. 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
1.00		Majburiy fanlar	5340	178	
1.01	O‘EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.03	TAT1104	Axborot texnologiyalari	120	4	1
1.04	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.05	TILSH1104	Tilshunoslik	120	4	2
1.06	HO‘AT11-208	Hozirgi o‘zbek (rus) adabiy tili	240	8	1-2
1.07	TMKIR1104	Tarjimonlik mutaxassisligiga kirish	120	4	1
1.08	OYA11-626	O‘qish va yozish amaliyoti	780	26	1-6
1.09	ONA11-416	Og‘zaki nutq amaliyoti	480	16	1-4
1.10	MATT1704	Matbuot tili	120	4	7
1.11	YTAR11-306	Yozma tarjima	540	18	1-3
1.12	ATAR13-406	Audiovizual tarjima	180	6	4
1.13	KKT1504	Ketma-ket tarjima	120	4	5
1.14	TART15-610	Tarjima va tahrir	420	14	5-7
1.15	STAR1806	Sinxron tarjima	180	6	8
1.16	ITT1804	Ilmiy-texnikaviy matnlar tarjimasи	120	4	8
1.17	FALS1304	Falsafa	120	4	3
1.18	ADSHK1304	Adabiyotshunoslik	120	4	3
1.19	TMM1404	Tarjimada madaniyatlararo muloqot	120	4	4
1.20	ICHT13-720	Ikkinchi chet tili	600	20	3-7
1.21	O‘TNA15-712	O‘rganilayotgan til nazariy aspektlari	360	12	5-7
1.22	TO‘MA1704	Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti	120	4	8
		Tanlov fanlar	1200	40	3-8
		Jami	6540	218	
		Malakaviy amaliyot	540	18	4,6,7
		Yakuniy davlat attestasiyasi	120	4	8
		Jami	660	22	
		Hammasi	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01. 040. 01

Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, kredit-modul tizimi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat ob'yekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturlari, bakalavriatning o'quv jarayoni, o'qib o'rganish natijalari, malaka talablari, ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish, mustaqil ta'lim, OAVda tarjimonlik, tarjima turlari, tashkiliy-boshqaruv, tarjimonlik va muharrirlik, terminologiya tarjimasi, sinxron tarjima, badiiy tarjima, maktabgacha, umumiyl o'rta va o'rta maxsus hamda professional ta'lim, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar, davlat attestasiyasi, ilmiy tadqiqot jarayoni, uzlucksiz ta'lim tizimi, pedagogik faoliyat, tarjima turlari.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar
iste'molchilari

ISHLAB CHIQQLGAN:



O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Rektor v.v.b. B.Kulmatov

2023 yil " "

KELISHILGAN:

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi

O'zbekiston Milliy universiteti

Direktor

Sh.Yakubov

2023 yil "

Rektor

I.Madjidov

2023 yil "

Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti

Rektor

Sh.Sirojiddinov

2023 yil "

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

Rais

S.Saidov

2023 yil "



O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta'lif yo'nalishi
bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lif
muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida

KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ ” 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi S.Saidov, O'zbekiston Milliy universiteti rektori I.Madjidov, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti rektori Sh.Sirojiddinov, quyidagi bakalavriat ta'lif yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti (roman-german tillari) ta'lif yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lif muassasalarida ta'lif sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019/2020 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lif muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida”gi PQ-4359-son Qarorlariga hamda oliy ta'lif sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjalatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lif yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

S.Saidov

O'zbekiston Milliy universiteti
rektori

I.Madjidov

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti rektori

Sh.Sirojiddinov

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
rektori v.v.b.

B.Kulmatov

